

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**R.A.Mamajonov**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati ..... 545

**B.A.Pulatov**

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lif-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari ..... 548

**K.I.Marayimova**

Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ..... 552

**N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva**

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentiligini rivojlantirish usullari ..... 557

**D.I.Asqarova**

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari ..... 561

**M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov**

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari ..... 569

**M.Q.Jabborova**

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamонавиғи sifatiga erishish omillari ..... 572

**FALSAFA****A.A.A.Qambarov**

"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari ..... 579

**I.M.Arzimatova**

Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'mi ..... 583

**D.E.Normatova**

Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati ..... 588

**I.A.Asatulloev**

Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari m'a'naviy hayotining qiyosiy tahlili ..... 593

**T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov**

Korruksiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limi jihatlari ..... 597

**S.S.Evatov**

Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'mi ..... 602

**I.Y.Toirov**

Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarini o'rganish muammolari ..... 606

**A.M.Rasulov**

Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili ..... 610

**A.A.Sayitxonov**

Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'mi ..... 614

**F.A.Yuldashev**

Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests ..... 618

**S.P.Tojiboyev**

Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili ..... 625

**B.X.Mirzraximov, B.T.Shokirov**

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari ..... 631

**M.A.Abduxamidov**

Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlarga munosabatining tahlili ..... 635

**SIYOSAT****J.A.Dadaboyeva**

Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari ..... 638

**A.A.Ganiyev**

Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati ..... 643

**TARIX****B.A.Usmonov**

"Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir ..... 648



УО'К: 930.85:1(5)

## SHARQ ILK UYG'ONISH DAVRI VA UNING ILMIY-FALSAFIY MOHIYATI

## ЭПОХА РАННЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ ВОСТОКА И ЕГО НАУЧНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУТЬ

THE FIRST RENAISSANCE PERIOD OF THE EAST AND ITS SCIENTIFIC-  
PHILOSOPHICAL ESSENCE

Normatova Dildor Esonalievna

Farg'onan davlat universiteti, falsafa fanlari nomzodi, dosent

## Annotations

*Maqolada Sharq ilk Uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati yoritilgan. Uyg'onish nomini olgan IX-XII asrlarda diniy-falsafiy, ilmiy va tabiiy fanlar rivojini chinakkam sivilizasiyaga turki bo'ldi. Sharq Uyg'onish jarayoni va ayniqsa arab dunyosi bilan tutashgan Markaziy osiyo xududlariga ham jiddiy ta'sir ko'ssatdi. Buyuk ipak yo'llining Sharq xalqlarini bir-biri bilan bog'laganligi, ularning hartomonlama aloqalarini rivojanishi, turmush tarzini boyishiga sezilarini ta'sir ko'satganiyi tahsil qilingan. Sharq Uyg'onishining o'ziga xos xususiyatlardan yana biri shundaki, u yolg'iz bir mamlakat chegarasida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va tarixiy taqdiri mushtarak bo'lgan bir qator mamlakat va mintaqalarda tarixan bir davrda kechishi o'rganilgan. Shu ma'noda Uyg'onish harakati umumiy harakterga ega ekanligi va u madaniyatning yakka-yolg'iz bir sohasiga tegishli bo'llib qolmay ijtimoiy tafakkur, fan va san'atning barcha jahbalarini qamrab olishi ilmiy-falsafiy jihatdan o'rganilgan. Uyg'onish umumiy qonuniyatlar, mushtarak jihatlar bilan bir qatorda takrorlanmas milliy xususiyatga ham ega ekanligini alohida ta'kidlash kerak. Chunonchi, XIII asrda mo'g'ul istilosini tufayli Markaziy osiyyoda iqtisodiy va madaniy taraqqiyot qariyib bir asr orqaga ketadi, keyinchalik uni qayta tiklashga to'g'ri kelganligi. Sharq Uyg'onishi o'zining ko'p mamlakatiligi bilan ajralib turganligi, Garbiy Evropa mamlakatlari Uyg'onishi birin-ketin, navbatma-navbat yuz bergan bo'lsa, Sharq Uyg'onish jarayoni turli mintaqada yashovchi ko'plab xalqlarning madaniyatida tarixan bir vaqtida sodir bo'lganligi bayon etilgan.*

## Annotation

*В статье рассматривается раннее Восточное Возрождение и её научно-философская сущность. В IX-XII веках, получивших название эпохи Возрождения, развитие религиозно-философских, научных и естественных наук породило настоящую цивилизацию. Процесс Восточного Возрождения оказал серьезное влияние, в частности, на регионы Центральной Азии, прилегающие к арабскому миру. Также, дружелюбие Восточного Возрождения состоит в том, что оно изучается не только в пределах одной страны, но и в ряде стран и регионов с общими социально-экономическими условиями. В этом смысле научно и философски изучено, что движение Возрождения имеет общий характер и не принадлежит какой-либо однородной сфере культуры, охватывает все стороны общественной мысли, науки и искусства. Следует подчеркнуть, что Ренессанс, наряду с общими законами общими аспектами, имеет и неповторимый национальный характер. Например, из-за монгольского нашествия в XIII веке экономическое и культурное развитие Средней Азии остановилось почти на столетие, а затем его пришлось восстанавливать.*

## Abstract

*The article describes the early Eastern Renaissance and its scientific and philosophical essence. In the 9th-12th centuries, which received the name of the Renaissance, the development of religious-philosophical, scientific and natural sciences gave rise to a real civilization. The process of the Eastern Renaissance had a serious impact on the regions of Central Asia adjacent to the Arab world in particular. Another characteristic of the Eastern Renaissance is that it is studied not only within the borders of one country, but also in a number of countries and regions with common socio-economic conditions and historical fate. In this sense, it has been scientifically and philosophically studied that the Renaissance movement has a general character and that it does not belong to a single sphere of culture, but covers all aspects of social thought, science and art. It should be emphasized that the renaissance, along with common laws and common aspects, also has an unrepeatable national character. For example, due to the Mongol invasion in the 13th century, the economic and cultural development in Central Asia went back nearly a century, and then it had to be restored. It is stated that the process of Eastern Renaissance occurred historically simultaneously in the culture of many peoples living in different regions.*

**Kelit so'zlar:** Uyg'onish, madaniy-ma'naviy aloqalar, donishmand, ilm-fan, urf-odat, insoniylik, do'stlik, axloqiylik, sivilizasiya, badiiy madaniyat, iqtisodiy taraqqiyot, jamiyat, ma'rifatparvarlik, komil inson

**Ключевые слова:** возрождение, культурно-духовные отношения, мудрец, наука, традиция, человечество, дружба, мораль, цивилизация, художественная культура, экономическое развитие, общество, просвещение, совершенный человек.

**Key words:** awakening, cultural-spiritual relationship, wisdom, science, tradition, humanity, friendship, morality, civilization, godly culture, economic development, community, enlightenment.

## KIRISH

## FALSAFA

IX-XII asrda jahon sivilizasiyasi tarixiy taraqqiyoti davomida birinchi bo'lib, Sharq mo'jizasi yuz berdi. Xuddi shu davrda qadimgi Sharq mintaqasiga mansub Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, Markaziy osiyo xududlari insoniyat sivilizasiyasining ilk sarchashmalari sifatida shakllandi. Bu jarayonda ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan, Sharqu-G'arbni tutashtirgan, o'zaro madaniyat, dinu-e'tiqod, urf-odat, udumu an'analar almashinuvini ta'minlagan Buyuk ipak yo'lining o'mni katta bo'ldi. Ko'hna Xitoy yurtidan boshlangan bu yo'l avvalo Sharq xalqlarini bir-biri bilan bog'lagan, ularning iqtisodiy, savdo-sotiq, madaniy-ma'naviy aloqalarini rivojlanishi, turmush tarzini boyitishida sezilarli turtki bo'ldi. Sharq xalqlari, elatlarning tili, urf-odatlari, musiqasi, to'y-marakalar, diniy rasm rusumlaridagi o'xhashlik jihatlarining mavjudligi ham buni yaqqol isbot etadi.

"Shuningdek, VII-asrdan boshlab arab dunyosida islom bayrog'i ostida vujudga kelgan xalifalik davlati qisqa tarixiy davr ichida ko'pgina xududlarni egallab ularda nisbatan yagona iqtisodiy va madaniy-ma'naviy makon yaratishga muvaffaq bo'ldi. Bunday hollar Sharq Uyg'onish jarayoni va ayniqsa arab dunyosi bilan tutashgan Markaziy osiyo xududlariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi" [1]. XIX-XII asrlar davomida xalifalik tasarrufidagi mamlakatlarda islomiy hamda dunyoviy madaniyatning yonma-yon rivojlanishiga keng yo'l ochildiki, bu hol oxir oqibatda Sharq dunyosini ulkan o'zgarishlarga olib keldi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur mavzu bo'yicha mamlakatimizning ko'zga ko'rningan olimlarimiz A.Zohidiy, N.Komilov, M.Xayrullaev, N.Rahmonov, S.Rahimov, A.Qayumov, N.Mallaev, A.Sharipov, U.Uvatov, H.Po'latov, M.Mamatov ilmiy tadqiqotlaridan, J.S.Ramatov, M.Xasanov, L.Valievlarning "Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta'llimotlari (Abu nasr Forobi, Aby Rayhon beruniyning siyosiy-huquqiy qarashlari asosida), U.Qurbanovning "Uyg'onish davrining xususiyatlari va ijtimoriy-falsafiy fikrlar rivojlanishi", D.Po'latova, M.Ahmedova, M.Qodirov, J.Sulaymonov, Sh.Shozamonov "Yangi va eng yangi davr Sharq falsafasi" nomli o'quv-qo'llanmasi, shuningdek, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniylarning manbaalaridan va internet sahifalaridan unumli foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida Sharq ilk Uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati dialektik, tizimli yondoshuv, qiyosiy tahlil, analiz va sintez kabi usullardan foydalanildi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Bu jarayonlarning kuchayishiga shu yurtlar hukumdarlarining o'z davrining donishmand, bilimdon, ilmparvar siymlari sifatida adolat, qonun ustivorligiga amal qilib faoliyat yuritganliklari ham ma'lum ma'noda turtki bergen. Buni xalifalik xukumdarlar sanalgan Xorun ar-Rashid, Ma'mun yoxud ona yurtimiz ma'rifikatparvar hukmdorlari: Ismoil Samoniylar, Mahmud G'aznaviy, Malikshoh, Nizomulmulk, Jaloliddin otsiz, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro va boshqalar timsolida aniq-ravshan ko'rishimiz mumkin. Sharq Uyg'onish davri o'z mazmun mohiyatiga ko'ra quyidagi muhim omillar va xususiyatlari bilan yaqqol ajralib turadi:

\*Dunyoviy bilimlar, islom axkomlari, aqidalarining rivojlanishi, ularning jamiyat va odamlar manfaatlari nuqtai nazaridan talqin etilishi;

\*Turli davlatlar, xalqlarning (arab, eron, yunon, hind, turkiy va boshqa) madaniyat meroslari, qadriyatlari, yutug'lari ma'naviy boyliklaridan foydalanish zarurligi;

\*Astronomiya, matematika, minerologiya, jug'rofiya, kimyo va tabiiy fanlar rivoji;

\*Uslub (metodologiya) da ratsionalizm, (oqilonalik), mantiqning ustivorligi;

\*Insoniy do'stlik, yuksak ahloqiylik g'oyalarining targ'ib etilishi, komil inson shaxsini shakllantirib voyaga etkazish;

\*Falsaфа va tarix fanlarining o'sishi;

\*Adabiyot, musiqa, badiiy madaniyat, notiqlikning keng rivoj topishi;

\*Bilimdonlik, donishmandlikning qomusiy tarzda keng e'tirof topishi va yokazolar Uyg'onish davrining bu asosiy omillari va xususiyatlari, dunyoviy ilm-fanning rivojlanishi bular, shubhasiz, bashariyat ma'naviyati yuksalishining muhim o'lcov mezonlari bo'lib xizmat qildi.

Sharq madaniy Uyg'onishining o'ziga xos muhim jihatlaridan biri shundaki, bu yuksalish jarayoni bir vaqtning o'zida ham xalifalik markazida va hamda uning Mag'ribu Mashriq tomonlarida (Ispaniya Andaluziyasi va Markaziy osiyoda) birdek namoyon bo'ldi. Masalan: 9 asr boshlarida xalifalik poytaxti Bog'dod bir vaqtning o'zida ham islomiy madaniyat va dunyoviy madaniyat, ilmu-urfonning yirik markazlaridan biriga aylangan edi. Xalifa Xorun ar-Rashid (766-809) davrida Bog'dodda tashkil etilgan. "Bayt ul Xikma" (Donishmandlar uyi) olimlarini birlashtirgan ilmiy muassasa Xalifa Ma'mun (819-833) davrida yanada rivojlandi. Unda ko'p sonli qomusiy bilim

sohiblari ilm-fanning turli-tuman sohalari bo'yicha yirik tadqiqotlar olib borganlar. Bu allomalarning talay qismi o'rta osiyo namoyondalari bo'lganliklari esa biz uchun alohida g'urur va e'tiborga arzirlidir.

Bu davr dunyoviy ilm-fanning yana bir muhim yutug'i shundaki, arab va ajam olimlarining katta sa'y-harakatlari, izlanishlari tufayli Yunon, Lotin, Misr, Hind tillarida bitilgan son-sanoqsiz noyob asarlar, qo'lyozmalar topilib, ular arab tiliga tarjima etildi va hayotga ijodiy tadbiq etila boshladi. Arab Mag'ribi – Ispaniya Andalusiyasida ham Sharq uyg'onishiga xos muslimon madaniyatining yuksak rivojlanganligi ko'zga tashlanadi. Bu davr moddiy madaniyatining gultojisi – bu Gresiya (Andaluzya) poytaxti tepaligida bunyod topgan Alqambra me'moriy obidalar majmuidir. Bu erda qad rostlagan arku qasrlar, masjidu-maqbaralar, inshootlar, ularning ichki va tashqi bezalishi, ularning peshtoxiga yuksak mahorat bilan bitilgan Qur'on surasiga oid husnixat yozuvlari bu madaniyatning takrorlanmas namunalaridir. Amerikaning tanqli adibi Washington Irving ham bu majmuadan olgan hayratini o'z asari "Algambra" da batafsil bayon etgani tasodifiy emas. Bu zamin xududlarining qulay jo'g'rofiy mintaqa, Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahalarida joylashganligi, uning G'arb bilan Sharqni bog'lashdagi alohida o'mi, qolaversa ulug' ajdodlarimizning bunyodkorlik, yaratuvchilik salohiyati – bular uning bag'rida asta sekin hayratlanarli moddiy va ma'nnaviy o'zgarishlarni yuzaga chiqara bordi. Bu narsa dastavval, shaharlar hayotining o'sishida, savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojida, muslimon madaniyatiga oid mahobatli inshootlar, minoralar, maqbaralar, saroylar qurilishida, ipak yo'li chorrahalari bo'ylab ko'plab karvonsaroylar, rabotu sardobalar (ularning qoldiqlari Malik, Mirzacho'l va boshqa joylarda ham uchraydi) bunyod etilishida yaqqol ko'rindi. Masalan: bиргина Xorazm vohasida X-asrda 10 ta shahar mavjud bo'lgan bo'lsa, 11-asrga kelib ularning soni 40 taga etadi. Buxoroning "Qubbatul islom" – islom dinining gumbazi degan nomga, Samargandning esa er yuzining sayqali nomiga sazovor bo'lganligi fikrimiz dalilidir.

Tarixchi Abu Mansur As-Saolibiy (961-1038) ham Buxoro haqida mana bu so'zlarni bejiz aytmagan bo'lsa kerak! "Buxoro Samoniylar davridan boshlab, shon-shuhurat makoni, sultanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan, er yuzi adiblarining yulduzlarini porlagen hamda o'z davrining fozillari yig'ilgan joy edi". X asrning ikkinchi yarmidan boshlab faoliyat boshlagan Xorazm Ma'mun akademiyasi ham bu yurtning ilmu urfoni ravnaqida alohida o'rinn tutdi.

"Yurt obodonchiligi, mamlakat ravnaqi, quadratining yuksalishi davomida unda tabiiy ravishda ma'nnaviy madaniyat, ilm-fan rivoji ham jadal sur'atlar bilan ko'zga tashlanib bordiki, buning natijasida bu zamindan o'z elini shon-sharafga burkagan, dunyoga dovrug' taratgan mashhur allomalar ilm-fan yulduzlarini etishib chiqdilar. o'rta osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida, shu jumladan, Markaziy osiyoda Uyg'onish harakatlari davri Evropada sodir bo'lganidek, ikki ijtimoiy-iqtisodiy tuzum-feodalizm va kapitalizm chegaralaridagiga o'xshash emas, balki yagona ishlab chiqarish usuli amal va hukmronlik qilib turgan jamiyatda – feodalizm bag'rida yuz beradi. Bu - Markaziy osiyo Uyg'onish harakatining asosiy xususiyatidir"[2]

Ikkinchidan, Markaziy osiyo Uyg'onish harakatining ham o'ziga xos ma'nnaviy tayanchlari bo'lgan. Avvalom bor, bu antik zamon madaniyatiga ijodiy va ijodiy munosabatda bo'lishidir. Evropa Uyg'onishi uchun antik madaniyat turtki bo'lganligi, unga orzu idealdagi narsa sifatida qaralganligi ma'lum. Antik zamon deyilganda, odatda, qadimgi yunon tafakkuri, madaniyati ko'zda tutiladigan bo'lsa, shubhasizki, bu narsa Sharq Uyg'onish jarayonida ham ijodiy rol o'ynaganligini ta'kidlash mumkin. Gap shundaki, IX asrdan boshlab sharq allomalari yunon antik falsafasi, fani, madaniyati, adabiyot va san'atini ijodiy o'rgandilar. Aflatun, Arastu va boshqalarning falsafiy ta'llimotlari Sharqda shu ruhdagi ta'llimotlarning yuzaga kelishida va rivojida katta turtki bo'ldi. "Adabiyotlarda qayd etilganidek, Sharqqa mashhur bo'lgan Platon (Aflatun), Platin, neoplatonchilik (ishtiroti yunonchilik), gnostisizm, Aristotel (Arastu)ning idealistik, mistik tomonlari ham kattagina ta'sir ko'rsatgan edi. Shuning uchun ham tasodifiy emaski, mutasavvuflarning qarashlarida Platon va Plotinining ta'llimotlari, neoplatonik va mistik aristotelchilik momentlarini uchratamiz"[3]

Ayni vaqtda o'rta asr Sharq mamlakatlarida antik zamon madaniyati namunalari tarjima qilindi, antik zamonning Iskandar haqidagi rivoyatlari keng tarqaldi, astronomiya, medisina, matematika singari fanlarning rivojlanishiga ularga bitilgan sharh (kommentariya)larning ta'siri katta bo'ldi. Shuning uchun Markaziy osiyo Uyg'onish davri alloma va san'atkorlarining badiiy-ilmiy asarlarda yunon mutafakkirlari va buyuk shaxslari obrazlari keng o'rinn egallaydi. A.Jomiyning "Xiradnomai Iskandariy", A.Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlarida yunon olimlari sarkardasi obraqi yaratilishining boisi shunda. Demak Sharq Uyg'onishi ham yunon madaniyati bilan yaqindan aloqada bo'lgan.

## FALSAFA

Markaziy osiyo Uyg'onish harakatida Yaqin va o'rta Sharq mamlakatlari quldarlik davri madaniyatining ham alohida o'rni bor. Anglashiladiki, antik zamondan Uyg'onish madaniyatini uchun asosiy manba emas, balki bir vosita sifatida namoyon bo'ladi. Aslida Uyg'onish davrida qadimgi tiklash, uni qaytadan bonyod etishga zaruriyat bo'laman. Bu davrda yangicha siyosiy va huquqiy fanlar, yangicha adabiyot va san'at, falsafa va estetik tafakkur, tibbiyot va ahloq yaratilgan, qadimgi antik dunyoda yuzaga kelgan fikrlash usuli, madaniyat shakllari ana shu jarayonning amal qilishiga ko'mak beradi. Uyg'onishning yana bir xususiyati insonning jaholatga qarshi muayyan qarashi – o'zligini e'tirof etishi g'oyasi shakllanishida ko'zga tashlanadi va bunda Sharqning boy ma'naviy merosi alohida o'rinni tutadi, albatta. odatda Uyg'onish davri haqida gap borganda uning buyuk siymolariga muhtojligi, ayni vaqtida o'z tafakkur kuchi, ehtirosi, salohiyati, mukammallik va omillik jihatidan ulug' kishilarni etishtirib berganligi tilga olinadi. Shu nuqtai nazardan Xorazmiy, Farg'oniy, Farobi, Firdavsiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek, Jomiy, Navoiy, Behzod kabi buyuk siymolarning dunyoviy madaniyat tarixida tutgan o'rni ibratlidir. Sharq Uyg'onishining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, u yolg'iz bir mamlakat chegarasida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va tarixiy taqdirlari mushtarak bo'lgan bir qator mamlakat va mintaqalarda tarixan bir davrga kechadi. Shu ma'noda Uyg'onish harkati umumiy harakterga ega va u madaniyatning yakka-yolg'iz bir sohasiga tegishli bo'lib qolmay, ijtimoiy tafakkur, fan va san'atning barcha jabhalarini qamrab oladi.

Uyg'onish umumiy qonuniyatlar, mushtarak jihatlar bilan bir qatorda takrorlanmas milliy xususiyatga ham ega ekanligini alohida ta'kidlash kerak. Chunonchi, XIII asrda mo'g'ul istilosini tufayli Markaziy osiyoda iqtisodiy va madaniy taraqqiyot qariyib bir asr orqaga ketadi, keyinchalik uni qayta tiklashga to'g'ri keldi. Sharq Uyg'onishi o'zining ko'p mamlakatiligi bilan ajralib turadi. Garbiy Evropa mamlakatlari Uyg'onishi birin-ketin, navbatma-navbat yuz bergan bo'lsa, Sharq Uyg'onish jarayoni turli mintaqada yashovchi ko'plab xalqlarning madaniyatida tarixan bir vaqtda sodir bo'ladi. Bu narsa ular o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunga asoslanib turib Sharqda bu jarayonni ozarbayjon, Xuroson, Mavarounnahr uchun mushtarak hodisa deb qarash mumkin. Akademik M.Xayrullaev Markaziy osiyo Uyg'onish davrini asosan ikki bosqichga bo'lib o'rganishni taklif etadi. Birinchisi uning shakllanish davri bo'lib, IX-XII asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Xorazmiy, Farg'oniy, Forobi, Ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Qoshg'ariy, Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Yugnakiy kabi qomusiy ilm sohiblari, san'at ahllari yashagan va bular falsafiy-ilmiy yo'nalishni rivojlantirganlar. Ikkinchisi Sharq Uyg'onishining etuklik bosqichini ifodalaydi, Ulug'bek, Koshiy, Ali Qushchi, Jomiy, Navoiy, Behzodlar yashab ijod qilgan XIV-XV asrlami qamrab oladi. Xronologik jihatdan yondashadigan bo'lsak bu davr Temur va Temuriylar yashagan zamonlar bilan bog'lanadi, bunda badiiy-estetik yo'nalish alohida sohani tashkil etadi.

## XULOSA

Mazkur mavzuni yoritishda buyuk Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlari, tabiiy-ilmiy kashfiyotlari bilan bir qatorda tasavvuf g'oyalari munosabati va etuk mutasavvuf olimlarning tariqatlarini chetlab o'tib bo'ladi. Chunki bu davr madaniyatini o'rganishda ijtimoiy, ma'naviy-mafkuraviy xususiyatlari bilan yuqori pallada turgan so'fizm g'oyalari asosiy o'rinni egallaydi. o'rta asrlar sharoitida islomga e'tiqod qiluvchi xalqlarning ma'naviy-ruhiy hayotiga tasavvufning ta'siri benihoya katta bo'ldi. "Xalq og'zaki ijodiga rivoyat, ertak, doston, baxshilik, badiiy adabiyotimiz rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Xalqimiz yaratgan ertak va qahramonlik dostonlarida xalqning orzu-istiklari, milliy ruhi va g'ururi kuyylanadi, ollohga ruhan yaqinligi va ezguliklari bilan ajralib turgan, odamlarning tinch-farovon hayotlari va mustahkam e'tiqodlari uchun kurashgan pirlar, donishmandlar, javonmardlar to'g'risida hikoya qilinadi"[4]

Bugungi kunda ham tasavvuf g'oyalaring yoshlarning ma'naviy kamoloti va ruhan pokligini tarbiyalashdagi ahamiyati katta. Ayniqsa, islam niqobi ostida, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaasib kuchlar, yoshlarning bosh-ko'zini aylantirib ulardan o'zlarining noplari maqsadlari yo'lida foydalanishga urinayotgan yovuz kuchlarga qarshi kurashda tasavvuf ta'limotining ruhiy g'oyaviy ta'siri kuchlidir. "o'z davrida buyuk "Ikkinchchi muallim" Abu Nasr Forobi ta'kidlaganidek, tasavvuf-jaholatparastlik illatidan butunlay forig'. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaralgan eng qadimgi tosh yozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalardan tartib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, ahloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, agronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi"[5].

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, ahloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan tarixiy manbaalardan unumli foydalanib, yuksak ma'nnaviyatga erishishimiz va Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq forovonligi uchun xizmat qilishimiz darkor. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov shunday deydi: "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalombor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak"[6].

Bugungi kunda biz yoshlarga qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lganligi g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Buni jahon jamoatchiligi tan olmoqda va e'tirof etmoqdaki, bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar etishib chiqqani, umumbashariy sivilizasiya va madaniyatning uzyvi qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islam dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga etgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos hisoblanadi. ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, ahloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyib uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, "Avesto" deb atalgan bebaho ma'nnaviy obida alohida o'rinn tutadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.- Toshkent: o'zbekiston, 2019.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi o'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: o'zbekiston, 2021.
3. Islom ensiklopediyasi. T.: 2004.
4. Xayrullaev M. – o'rta osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati. T.: 1994.
5. Xayrullaev M. "Ma'nnaviyat yulduzlari". Xalq merosi. 1999.
6. Po'latov H., Mamatov M. – Tasavvuf tarixidan lavhalar. T: 2011.
7. o'zbekiston xalqlari tarixi. 1-tom. T.: 2000.